

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TARQALGAN QORAKO‘LCHILIK YAYLOV TIPLARI

Boboyeva Nafisa Asatulloyevna, qishloq xo‘jaligi falsafa fanlari doktori, (PhD),
Abdisalomova Mohinur Abdumurod qizi, talaba,
 Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan qorako‘lchilik yaylov tiplari, ularning maydoni, geografik joylashgan o‘rni, rel‘efi, tabiiy-iqlim va tuproq sharoiti, yaylov tipi fitotsenozlari va ularning xarakteristikasi hamda ushbu yaylov tiplarida yuqori hosilli ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklarining agrofitotsenozlarini yaratish texnologiyasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yaylov tiplari, agrofititsenozlar, ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklari, tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari.

Аннотация. В данной статье рассмотрены типы каракулевых пастбищ, распространённые на территории Республики Узбекистан, а также их площадь, географическое расположение, рельеф, природно-климатические и почвенные условия, фитоценозы пастбищного типа и их продуктивность. Описана технология создания агрофитоценозов высокопродуктивных кормовых пустынно-пастбищных растений в различных типах пастбищ.

Ключевые слова: типы пастбищ, агрофитоценозы, кормовые пустынно-пастбищные растения, природно-почвенные условия.

Abstract. This article examines the types of Karakul pastures common on the territory of the Republic of Uzbekistan, as well as their area, geographical location, relief, natural, climatic and soil conditions, pasture-type phytocenoses and their productivity. The technology for creating agrophytocenoses of forage desert-pasture plants in various types of pastures is described.

Key words: types of pastures, agrophytocenoses, forage desert-pasture plants, natural, climatic and soil conditions.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining qariyb teng yarmi, ya‘ni 21 mln gektar yer maydoni yaylov hududlariga to‘g‘ri keladi. Bu yaylovlar yaylov chorvachiligining eng asosiy va arzon ozuqa manbai sifatida xizmat qiladi. Biroq soha barqaror rivojlanish yo‘liga hali o‘tib ulgurgani yo‘q. Yaylov hosildorligi yog‘in-sochin miqdori bilan bog‘liqligi, qurg‘oqchil yillarda yaylov chorvachiligi katta iqtisodiy talofat ko‘rish, yaylov yuklamasi va yaylov sig‘imining kamayib ketishi kabi salbiy holatlar, yaylovlarda ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklari agrofitotsenozlarini yaratish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi [1].

Bundan tashqari, yaylov ekologik holatini yaxshilash maqsadida yaylov agrofititsenozlarini yaratish va tubdan yaxshilash muhim o‘rin tutadi. Shu sababdan yaylov tipi bo‘yicha yaylov monitoringini olib borish dolzarb masala sifatida qaraladi. Yaylov monitoringini olib borish, yaylov tiplari maxsuldorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hududida tarqalgan qorako‘lchilik yaylovlari asosan to‘rt tipga bo‘linadi: ular efemer va efemeroidli yaylov tipi, buta-barra o‘tli yaylov tipi, yarim buta-barra o‘tli yaylov tipi yoki shuvoq-barra o‘tli yaylov tipi hamda sho‘ra o‘tli yaylov tipi. Efemer va efemeroidli yaylov tipi asosan adir mintqasida joylashgan bo‘lib, yaylov agrofitotsenozlari bo‘z tuproqlar sharoitida shakllanadi. Bu yaylov tipining respublikamizdagi maydoni 1,5 mln gektardan ziyoddir hamda asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida tarqalgan [4]. Efemer va efemeroidli yaylov tipi o‘simlik qoplamini efemer va efemeroid o‘simliklardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ildiz tizimi tuproqning yuza qismida qalin chim qatlamini hosil qiladi hamda yaylov tuproqlarini eroziyadan muhofaza qiladi. Efemer va efemeroidlar yaylov chorvasi uchun erta bahorgi muhim, sershira, vitaminlarga boy to‘yimli ozuqa manbai hisoblanadi. Efemer va efemeroidli yaylovlarning yillik ozuqa zahiralari ob-havoning kelishiga bog‘liq bo‘lib, bahor serman kelgan yillari o‘simlik qoplamining balandligi 50-60 smni, o‘rtacha yillarda 20-30 smni, noqulay yillarda 8-20

sm ni tashkil etadi. Hosildorligi ham shunga mutanosib ravishda 2 tsentnerdan 7 tsentnerni tashkil etsa, o‘simlik turlari 40-65 turdan iborat. Efemer va efemeroidli yaylov tipi o‘simliklarining hayotiy davomiyligi qisqa, ya‘ni faqatgina bahor fasliga to‘g‘ri kelgani uchun, ulardan kuz-qish oylari foydalanib bo‘lmaydi. Shu sababdan adir yaylovlari buta va yarim butalardan foydalanib kuzgi-qishgi yaylovlar barpo etish zarur [3].

Buta-barra o‘tli yaylovlar asosan Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan bo‘lib, maydoni 9 mln gektardan ortiq. Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida ularning maydoni 200 ming gektar atrofida [4]. Bu yaylov tipi qumli cho‘l hududiga to‘g‘ri kelib, o‘simlik qoplamini 3-4 yarusda joylashgan: birinchi yarusda balandligi 1,5-3 metrgacha bo‘lgan daraxtsimon butalar, ikkinchi yarusda balandligi 0,5-1 metrgacha bo‘lgan yarim-butalar, uchunchi va to‘rtinchi yarusda esa o‘tchil o‘simliklar joylashgan. Bu yaylov tipidagi o‘simlik qoplamining hosildorligi 3-7 tsentnerni tashkil etgani holda ustunlik jihati shundan iboratki, yilning qanday kelishishidan qat‘iy nazar, yaylovlarda ozuqaning mavjudligidadir. Yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillari buta-barra o‘tlar yaxshi rivojlanmasada, biroq buta va yarim butalar yaxshi rivojlanadi. Shu boisdan buta-barra o‘tli yaylovlar xo‘jalik nuqtai nazardan qulay yaylov tipi hisoblanadi. Bunday yaylovlarning yana bir xo‘jalik afzalligi shundaki, bu yerdagi daraxtsimon butalar-saksavul, qandim, cherkez va hokazo, ob-havoning noqulay kelgan kunlarida chorva mollari uchun boshpana vazifasini o‘taydi [2].

Yarim-butabarra o‘tli yoki shuvoq-barra o‘tli yaylov tipi asosan bo‘z, qo‘ng‘ir bo‘z, sur-qo‘ng‘ir tuproqlarda jami 6,7 mln dan ortiq maydonda tarqalgan. o‘simlik qoplamini ikki yarusdan: yarim buta va o‘tchil o‘simliklardan iborat. Ob-havo qulay kelgan yillari o‘tchil o‘simliklarning turlari 60 turdan oshishi mumkin. Shuvoq-barra o‘tli yaylovlarning muhim xo‘jalik xususiyatlaridan biri-ularning yil davomida foydalanish mumkin ekanligida.

Sho‘ra o‘tli yaylov tipi maydoni 1,5 mln gektar bo‘lib, cho‘l

mintqasining alohida-alohida sho'r tuproqli mintaqalarida uchraydi. Bunday yaylov tipining o'simlik qoplami juda siyrak bo'lib, Qoraxotun, Mingbuloq, Oyoqog'itma, To'rtko'l botiqlari atrofida uchraydi. Sho'ra o'tli yaylovlarda asosan galofit o'simliklar o'sib rivojlanishi mumkin, ularning hosildorligi tuproqning sho'rlanish darajasiga bog'liq bo'lib, 0,5-5 tsentnerni tashkil etadi. Bunday yaylov tipining hosildorligi kam bo'lgani uchun, qo'y-qo'zilar bunday yaylovlarda o'tlashi uchun uzoq masofani bosib o'tishlariga to'g'ri keladi.

Xulosa shuki, barcha yaylov tiplarida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan o'simlik turlari o'sib rivojlanadi, masalan, efemer va efemeroidli yaylov tipida qorako'l qo'ylari uchun protein, karbonsuvlar, vitaminlarga boy, to'yimli bir va ko'p yillik o'tchil o'simliklar o'sadi. Ularning hayot davomiyligi qisqa bo'lganligi bois, tezda qurib qoladi va xas holida iste'mol qilinadi. Buta-

barra o'tli yaylov tipida bahorgi barra o'tlardan tashqari hayot faoliyati uzoq davom etadigan buta va yarim buta o'simliklar o'sib rivojlanadi. Shu sababdan, bunday yaylov tipidan bahor, yoz va kuz fasllarida ham samarali foydalanish mumkin. Shuvoq-barra o'tli yaylovlarda bahorgi ko'kat o'simliklar bilan birgalikda yarim butalardan asosan shuvoq o'sadi hamda bunday yaylov tipidan yil davomida foydalanish mumkin. Sho'ra o'tli yaylov tipida asosan uzoq o'sish davriga ega bo'lgan, tarkibida ko'p miqdorda mineral tuz saqlaydigan sho'rga chidamli galofit o'simliklar o'sib rivojlanadi, xo'jalikda foydalanish jihatiga ko'ra, bunday yaylov tipidan asosan kuz faslida qo'ylarni qochirish mavsumida foydalaniladi. Demak, turli yaylov tipidan turli mavsumlarda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, yaylov tiplari bir-biridan floristik tarkibi, turlar dominantligi va fitotsenoz tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi PQ 4204-sonli "O'zbekiston Respublikasida cho'llashish va qurg'oqchilikka qarshi-kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
2. Farmonov E.T., Pulatov A.T. Cho'l va yarim-cho'l hududlarida saksovlur urug'ini ekishni mexanizatsiyalash orqali yashil qalqon maydonlar barpo etish bilan qum bo'ronlariga qarshi-kurashish. // Agroinform №4 [10] 2023. B 12-16.
3. Мукимов Т и другие. Улучшение деградированных пастбищ аридной зоны и уменьшение нагрузки на пастбища. // Продовольственная безопасность: национальные и глобальные факторы. Сборник материалов научно-практической международной конференции. Самарканд, 2019. С 147-148.
4. Раббимов А., Бобокулов А. Қорақўл ва Зомин туманларининг чўл ва ярим-чўл яйловларини яхшилашга оид тавсиялар. Тошкент, 2017. 24 б.

ANJIR YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA NAVLARI

Sitora Abdullayeva, doktorant,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti agrobotexnologiyalari va oziq- havfsizligi instituti

Annotatsiya. Respublikamiz iqlim sharoitida anjir yetishtirish texnologiyasi va shifobaxshlik xususiyatlari hamda mahalliy sharoitda ekishga tavsiya etilgan navlari Yangi anjirzorlar barpo etish, ko'chatlar ekish va parvarishlash bo'yicha agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishiga oid vazifalar ushbu qo'llanmada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: anjir, Dalmatskiy, Krimskiy-29, Uzbekskiy jolyty, Krimskiy-43, Krimskiy-9, Beliy Adriaticheskij, Kadota navlari, sug'orish, o'g'itlash, hosildorlik.

Аннотация. Технология и лечебные свойства выращивания инжира в климатических условиях нашей республики, а также сорта, рекомендуемые к посадке в местных условиях.

Ключевые слова: инжир, сорта Далмацкий, Крымский-29, Узбекский желтый, Крымский-43, Крымский-9, Белый Адриатический, Кадота, орошение, внесение удобрений, продуктивность.

Abstract. The technology and medicinal properties of fig cultivation in the climatic conditions of our republic, as well as the varieties recommended for planting in local conditions.

Key words: Fig, Dalmatsky, Krymsky-29, Uzbekskey jolytyy, Krymsky-43, Krymsky-9, Beliy Adriatichesky, Kadota varieties, irrigation, fertilization, productivity.

Kirish. O'zbekistonning janubiy qismi subtropik ekinlar yetishtirish uchun qulay xudud hisoblanadi. Respublikada qishloq xo'jaligining barcha sohalarini, shu jumladan, bog'dorchilikni jadal rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, subtropik mevali ekinlar hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ularni quruq va xo'l holda yetishtirish, aholining subtropik mevali mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirishiga qaratilishi zarur. Anjirda 50-77% gacha qand, 1161mg/% kaliy tuzlari, 227 mg/% kalsiy tuzlari, 117 mg/% magniy, 263 mg/% fosfor, 46 mg/% temir va 100 mg/% shavel kislotasi mavjud. Bundan tashqari, anjir mevalarida fibrinolizin xususiyatiga ega bo'lgan fisin o'simlik fermenti, shuningdek amilaza, proteaza va enzim topilgan. O'zbekistonda tuproq-iqlim sharoitlarining ulardan yuqori va sifatli hosil olish imkoniyatini beradi [1,3].

Iqlim sharoitlarining keskin o'zgaruvchanligi sharoitida anjirdan ko'p va sifatli hosil yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, mavjud resurslar, mineral va mahalliy o'g'itlar hamda sug'orish rejimini buzmasdan, yetishtirish texnologiyasidan to'g'ri va unumli foydalanishda bog'bon va fermerlarga tavsiyalar beriladi.

Anjir qand moddalari (kokisida 78% gacha qand bo'ladi), turli vitaminlar (V1, V2, S, Ye, RR vitaminlar) bilan karotinga, organik kislotalar (oksalat, limon, olma, sirka kislotalar)ga, mineral tuzlarga boy. Bu o'simlikning hamma qismlarida furokumarinlar -psoralen va berganten, glikozidlar bo'ladi. Urug'larida 29,4% moy bor. Yangi pishgan mevasi iste'mol qilinsa ichni yumshatadi, badandagi ichki shishlar va quyuqlashgan moddalarni bartaraf etadi, me'da va ichaklarni zararli moddalardan tozalaydi.